



QUTURISH KASALLIGINING ALOMATLARI, TASHXISI VA OLDINI OLISH USULLARI

Raimqulov Sirojiddin Olim o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali talabasi*

Boymaxmatov Umidjon Ma'mur o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali talabasi*

Xo'jaxonov Shoxruzxon Idrisxo'ja o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali v.f.f.d., (PhD), ilmiy rahbar*

Annotatsiya: Ushbu maqolada quturish (rabie) virusining insondagi klinik alomatlari, tashxis qo'yish usullari hamda zamonaviy davolash texnologiyalari yoritilgan. Quturish kasalligi markaziy nerv tizimini shikastlovchi, o'ta og'ir oqibatli virusli infektsiya bo'lib, har yili minglab insonlar hayotini oladi. Maqolada kasallikning bosqichma-bosqich kechishi, klinik belgilari, differentsial tashxisi va ilg'or terapevtik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, profilaktik choralar va antirabik vaktsinatsiyaning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: quturish, virus, tashxis, klinik alomatlar, davolash, vaktsinatsiya.

Quturish o'ta xavfli o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, issiqqonli hayvon va odamlarda uchraydi. Quturish kasalligini nerv tizimini shikastlantiruvchi viruslar ko'zg'atadi. Viruslar ko'plab miqdorda quturish kasalligiga chalingan hayvonlarning so'lagi bilan tashqi muhitga ajraladi. Kasallikning asosiy manbai



quturish kasalligiga chalingan it, mushuk, kalamush, bo'ri, chiyabo'ri hisoblanadi. It odamlar bilan yaqin bo'lganligi uchun ham kasallik yuqtirish jihatidan xavflidir. Itlarda quturishning 2 turi - shiddat bilan kechadigan va tinch (falajlik) turlari tafovut qilinadi. Shiddat bilan kechadigan turi asta-sekin boshlanadi. Itning bezovta, yovuz bo'lib qolganini atrofdagi odamlar sezib qolishadi. It irillaydi, gir-gir aylanadi, jazavasi tutadi, yeb bo'lmaydigan narsalarni g'ajiydi, odatdagi ovqatlarni yemay qo'yadi. Bekordan bekorga vovullayveradi, havodan xuddi bir narsani tishlab olayotganday harakat qiladi. Bu paytda uning qiynalib yutinayotgani seziladi. O'zi yashayotgan uydan qochib ketadi. Quturgan itlar duch kelgan hayvonlarga hatto odamlarga ham hujum qiladi. Odatda indamay borib tishlaydi va nariga qochib ketadi. Boshqa quturgan hayvonlarga qaraganda itlarda suvdan qo'rqish alomati kam uchraydi. It qiynalib bo'lsa ham suv ichadi, keyin yotib qoladi, itning yuqori jag', til va ko'zi butunlay falaj bo'lib qoladi. Itning so'lagi ko'p oqa boshlaydi. Tana muskullari, orqa oyoqlari va dumi falajlanadi hamda juda ko'p holatlarda it tirishib o'lib qoladi

Quturish - odam va hayvonlar uchun o'ta xavfli neyrotrop virusli infektsiya bo'lib, infektsiyaning asosiy manbai kasal hayvon hisoblanadi. Virus tishlash, tirnash yoki shilliq orqali organizmga kirib, nerv tolalari bo'ylab markaziy nerv tizimiga yetib boradi. Bu kasallikning inkubatsion davri bir necha haftadan bir necha oygacha davom etishi mumkin.

Quturish virusi (Rabies lyssavirus) — Rhabdoviridae oilasiga mansub bo'lib, neyrotrop xususiyatga ega. Organizmga kiringach, u periferik nervlarda replikatsiyalanib, markaziy nerv tizimiga taraladi. Bu jarayon klinik belgilari kech namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Dunyoda har yili 60 mingga yaqin inson quturishdan halok bo'ladi. Buning asosiy sababi — kasallik aniqlangandan so'ng uning davosi amaliy jihatdan yo'qligi. Shunday bo'lsada, infektsiyaning oldini olish, erta tashxis va profilaktik terapiya vositalari yordamida inson hayotini saqlab qolish mumkin. Zamonaviy tibbiyotda



quturish kasalligini tashxislashda serologik, molekulyar va immunologik usullardan keng foydalaniladi. Davolashda esa antirabik immunoglobulinlar, vaktsinatsiya va patogenetik terapiya usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Alomatlar, tashxis va davolash usullari. 1. Klinik alomatlar. Quturish kasalligi odatda uchta bosqichda kechadi:

1-bosqich (prodromal): isitma, bosh og'rig'i, bezovtalik, tishlangan joyda og'riq, karashish, qichishish kuzatiladi.

2-bosqich (nevrologik): gidrofobiya (suvdan qo'rqish), fotobiya (yorug'likdan qo'rqish), talofobiya (shamoldan qo'rqish), og'izdan ko'pik chiqishi, bo'g'ilish xurujlari.

3-bosqich (paralitik): mushaklar falaji, nafas olish to'xtashi, koma holati va o'lim.

Tashxis qo'yish usullari. Klinik belgilari va epidemiologik ma'lumotlar asosida dastlabki tashxis qo'yiladi. Laboratoriya tashxisida Flyuorestscent antitelo reaksiyasi (FAT), RT-PCR, ELISA va immunogistoximiya usullari qo'llaniladi. Miya to'qimasida "Negri jismchalari"ning aniqlanishi — tashxisni tasdiqlovchi belgidir.

Xulosa: Quturish kasalligi insoniyat uchun eng og'ir va o'lim darajasi 100% bo'lgan infeksiyalardan biridir. Shu sababli uning tashxisi va davolash usullarini takomillashtirish tibbiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tashxisda molekulyar usullarning joriy etilishi (RT-PCR, FAT) va serologik testlarning aniqligi yuqori bo'lishi kasallikni erta aniqlash imkonini beradi. Davolashda esa Miluoki protokoli kabi yangi usullar qo'llanilmoqda, ammo ularning samaradorligi hali to'liq isbotlanmagan. Shuning uchun eng muhim yo'nalish — profilaktika va vaktsinatsiya tizimini kuchaytirish, aholining ma'lumotlilikini oshirish va hayvonlarni rejali emlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. "Quturish kasalligining oldini olish bo'yicha metodik ko'rsatma". Toshkent, 2022.



2. Abdullaev A.X., Karimova Sh.F. Virusli infeksiyalar epidemiologiyasi. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.
3. Xo'jaev B.B. Zoonoz kasalliklar va ularning profilaktikasi. Toshkent, 2019.
4. Salomatlik jurnali. "Quturish: xavfli virus va uning oldini olish". №4, 2023.
5. Sharipov I. Veterinariya epidemiologiyasi. Samarqand, 2021.
6. Smirnov V.A. Beshenstvo: klinika, diagnostika i profilaktika. Moskva: Meditsina, 2019.
7. Ivanova N.P., Kuznetsov A.V. Современные методы диагностики бешенства. Журнал "Инфекционные болезни", 2021.
8. Petrov Yu.S. Rabies i puti bor'by s nim. Sankt-Peterburg, 2020.
9. WHO. Rabies: Epidemiology and control strategies. Geneva, 2022.
10. CDC. Rabies: Prevention and treatment protocols. Atlanta, 2023.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Худжамшукуров, А. Н. (2021). ТОВУҚ АСКАРИДИОЗИДА АСКАЗИН АНТИГЕЛЬМИНТИГИНИ ҚЎЛЛАШ НАТИЖАЛАРИ. *Интернаука*, (8-3), 44-46.
2. Nurmatovich, K. A., & Ogli, K. S. I. (2021). Effects of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 615-617.
3. Maxamadaliyeva, M. U., Abduhalilova, G. I., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). BRUTSELLYOZ VA UNING LABORATORIYA DIAGNOSTIKASI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(15), 41-47.



4. Давлатов, Р. Б. (2023). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИ (АДАБИЁТЛАР ШАРХИ). *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(26), 107-111.

5. Давлатов, Р. Б., & Бердиев, Х. Р. (2021). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИДА ОФЛОСАННИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Вестник Ветеринарии и Животноводства*, 1(1).

6. Бердиев, Х. Р., & Давлатов, Р. Б. (2021). Эффективность Enrovit-О при химической профилактике колибактериоза цыплят.

7. Berdiyevich, D. R. (2023). METHODS OF DIAGNOSIS OF CHICKEN COLIBACTERIOSIS. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 9-13.

8. G'oyipova, M. T. E., Xo'jaxonov, S., & Avliyoqulov, M. (2022). VETERINARIYA SOHASINING CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RN VA TAMOIYILLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(4), 238-240.

9. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.

10. Davlatov, R., Xujaxonov, S., & Berdiyev, X. (2021). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОФЛОСАНА В ХИМИЧЕСКОЙ ПРОФИЛАКТИКЕ КОЛИБАКТЕРИОЗА КУРИЦ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 1(1).

11. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. (2022). Measures For The Prevention Of Diseases Caused By Disorders Of Bee Nutrition And Feeding Conditions. *Academicia Globe*, 3(03), 5-8.

12. Zayniddinovich, Z. R. (2022). REVIEW OF THE LITERATURE ON SEPSIS IN CALVES AND MEASURES TO PREVENT IT. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 3(1), 1-4.



13. Oglu, K. S. I., Oglu, Y. O. A., & Oglu, J. S. H. (2021). Viral hemorrhagic fever of rabbits ("hemorrhagic pneumonia", "necrotic hepatitis").
14. Subxonovich, H. P., Ergashevna, G. M., & Ogli, K. S. I. (2021). Distribution of helminthosis diseases of one-hoied animals. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 880-883.
15. Mahamadaliyeva, M. U., & Agamurodov, O. A. (2021). MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPS DISEASE IN CALVES. *Ученый XXI века*, (10 (81)), 12-14.
16. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). TOVUQ EYMERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA SAMARALI EYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASH. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(4 Part 2), 75-78.
17. Abduhalilova, G. I., Makhamadaliyeva, M. U., & Khojakhonov, S. I. (2023). FISH BRANCHIOMYCOSIS PREVENTION MEASURES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 247-252.
18. G'aniyev, S. S., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYA LABORATORIYALARIDA SUTNI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TALABLARI. *Scientific Impulse*, 1(8), 586-592.
19. Davlatov, R. (2021). Товуқ колибактериозининг кимёвий профилактикасида антибиотикларнинг самарадорлиги. *Scienceweb academic papers collection*.
20. Davlatov, R. (2021). Бройлер жўжаларида айрим антибиотикларнинг самарадорлик кўрсаткичлари. *Scienceweb academic papers collection*.
21. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI Olish chora tadbirlari. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(5), 77-84.



22. Ibrohimov, U. D., Maxamadaliyeva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI PATOLOGIYASI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 32-39.

23. G'aniyev, S. S. (2023). VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI LABORATORIYALARIDA SHAKAR ASALI HAMDA SHAKAR QO'SHILGAN ASAL MAHSULOTLARINI ANIQLASH. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 66-69.

24. Davlatov, R. (2023). TO DETERMINE THE EFFECTIVENESS OF ANTIBIOTICS IN PREVENTING CHICKEN COLIBACTERIOSIS BASED ON EXPERIMENTS. *Scienceweb academic papers collection*.

25. Berdievich, D. R. (2023). PARRANDA ZOTLARI. ZOTLAR KLASSIFIKATSIYASI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(4), 74-80.

26. Berdievich, D. R. (2023). BROYLER JO 'JALARI SAQLANADIGAN BINOLARNI TAYYORLASH. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(4), 68-73.

27. Doniyorjon o'g, I. U. B. (2023). QO 'YLARDA PARAZITAR KASALLIKLARNI KELIB CHIQISHINI OLDINI Olish CHORA TADBIRLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 241-250.

28. Doniyorjon o'g, I. U. B. (2023). OTLARDA MANQA KASALLIGINI DAVOLASH VA UNI OLDINI Olish CHORA TADBIRLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 251-260.

29. Murodjon Turg'un o'g, A., & Ergashevna, G. O. M. T. (2023). ASALARI KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI Olish CHORA TADBIRLARI. *Научный Фокус*, 1(1), 122-131.



30. HUDUDIDAGI, V. S. E. L. B., BO, A. S. U. S. M., BAHOLASH, Y., & G'aniyev, S. S. (2023). VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI LABORATORIYALARIDA BOZOR HUDUDIDAGI ASAL SIFATINI UNDAGI SUV MIQDORI BO 'YICHA BAHOLASH. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(10), 46-48.

31. Xo'jaxonov, S. I., & Sharopov, A. U. (2023). IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY VAZIFALARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(8), 33-36.

32. Berdiyevich, D. R. (2023). QORAMOLLAR SISTISERKOZINING KELIB CHIQISHI, DAVOLASH VA OLDINI Olish CHORA TADBIRLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 23-30.

33. Berdiyevich, D. R. (2023). GELMINTOZLARGA TASHXIS QO 'YISH USULLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 3-13.

34. Berdiyevich, D. R. (2023). PARAZITLARGA QARSHI KURASHISH CHORA-TADBIRLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 14-22.

35. Шамсиддинович, Ф. О., & Эргашевна, Ф. М. (2023). МИКОТОКСИКОЗЛАР ВА УЛАРДАН АЖРАЛАДИГАН ТОКСИНЛАРНИНГ ҲАЙВОНЛАР ОРГАНИЗМИГА ТАЪСИРИ. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 108-115.

36. Murodjon Turg'un o'g, A. (2023). RESULTS OF LABORATORY ANALYSIS OF MEAT SAMPLES SUSPECTED OF TUBERCULOSIS. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 95-100.

37. Ergashevna, G. O. M. T. (2023). TUBERKULYOZGA GUMON QILINGAN QORAMOLLARDAN OLINGAN SUT TARKIBIDAGI MIKROORGANIZMLARNI ANIQLASH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 101-107.